

"Ammofos-Maxam" Ajda sayyor qabul tashkil etildi

// 23.09.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-ajda-sayyor-qabul-tashkil-etildi>



"Ammofos-Maxam" AJ boshqaruvi raisi Iskandar Umarov, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abduraxmonova, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Muhammadbobur Abdurazakov boshchilikda korxonada sayyor qabul tashkil etildi.

Uchrashuvda jamiyat faoliyatida ayollar va yoshlarning o'rni haqida alohida ta'kidlab o'tildi. Ular uchun munosib sharoitlarni yaratish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, salohiyatli xodimlarning malaka va tajribasini oshirish maqsadida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berildi.

Ishchi-xodimlar sayyor qabul davomida o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob olishdi.







"Ammofos-Maxam" AJ Matbuot markazi